

AT “Aloqabank” tizimida “Kredit ta’minoti bilan ishlash” dan ko‘chirma

VII. Garov mulkini qisman taqiqdandan chiqarish yoki boshqa mulkka almashtirish bilan bog‘liq amaliyotlar.

7.1. Ta’minot uchun qabul qilingan garov mulklari majburiyatlar to‘liq bajarilgandan so‘ng bekor qilinadi.

Kredit (kafolat, lizing, muddatli to‘lov va boshqalar) ta’minotlariga o‘zgartirish kiritish (*garov mulkini almashtirish*) yoki muddatidan avval qisman garovdan chiqarish mazkur kelishuv amalga oshirilish sanasidagi kredit asosiy qarz va hisoblangan foizlar qoldig‘idan kelib chiqib, Garov ta’minoti bilan ishlash boshqarmasining (bundan buyon matnda “Boshqarma” deb yuritiladi) ruxsati hamda HKXKM Garov ta’minoti bilan ishlash shu‘basi xodimlari xulosasiga asosan, Kollegial organlar vakolati doirasida (*HKXKM kredit komissiyasi, Kredit qo‘mitasi, Bank Kuzatuv kengashi, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi*) ko‘rib chiqilib, ijobiy qaror qabul qilingandan so‘ng amalga oshirilishi mumkin.

Kredit (kafolat, lizing, muddatli to‘lov va boshqalar) operatsiyalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladigan Bankning Kollegial organlari ro‘yxati va ularning vakolatlari darajasi quyidagicha belgilanadi.

1) Milliy valyutada amalga oshiriladigan kredit vositalari va operatsiyalari bo‘yicha:

- 5 (besh) mlrd. so‘mgacha ajratiladigan kreditlar – HKXKM Kredit komissiyalari ijobiy qaroriga asosan;

- 5,0 (besh) mlrd. so‘mdan yuqori va Bank sof aktivlarining 15 (o‘n besh) foizigacha summani tashkil etuvchi kreditlar – Bank Kredit qo‘mitasi qaroriga asosan;

- Bank sof aktivlarining 15 (o‘n besh) foizidan 50 (ellik) foizigachasini tashkil etuvchi kreditlar – Bank Kuzatuv kengashi qaroriga asosan;

- Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda – Bank Aksiyadorlari Umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan.

2) Chet el valyutasida amalga oshiriladigan kredit vositalari va operatsiyalari bo‘yicha:

- 500 000 (besh yuz ming) AQSh dollari ekvivalentigacha – HKXKM Kredit komissiyalari ijobiy qaroriga asosan;

- 500 000 (besh yuz ming) AQSh dollari ekvivalentidan yuqori va Bank sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizigacha summani tashkil etuvchi kreditlar – Bank Kredit qo‘mitasi qaroriga asosan;

- Bank sof aktivlarining 15 (o‘n besh) foizidan 50 (ellik) foizigachasini tashkil etuvchi kreditlar – Bank Kuzatuv kengashi qaroriga asosan;

- Amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda – Bank Aksiyadorlari Umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan.

7.2. Mijoz murojaati ro‘yxatga olingan sanadan boshlab Bankning Kollegial organlari vakolatlari doirasida quyidagi muddatlarda ko‘rib chiqiladi:

- a) HKXKM Kredit komissiyalari – 3 (uch) bank ish kunigacha;

- b) Kredit qo'mitasi – 10 (o'n) bank ish kunigacha;
- c) Bank Kuzatuv kengashi – 20 (yigirma) bank ish kunigacha;
- d) Qo'shimcha o'rganish talab qilinadigan holatlarda 30 (o'ttiz) kun muddatgacha ko'rib chiqilib, ijobiy yoki asoslantirilgan holda rad javobi beriladi.

7.3. Mijoz murojaati mazkur tartibning 7.2. bandiga muvofiq Bankning Kollegial organlari vakolatlari doirasida ko'rib chiqilgandan so'ng 1 bank ishi kuni ichida ammo "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 28-moddasi(murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari) talablarini buzmaganda holda mijozga ma'lumot beriladi.

7.4. Garov narsasini boshqa mulkka almashtirish yoki qisman garovdan chiqarish masalasi yuzasidan Kollegial organlar tomonidan ijobiy qaror qabul qilish uchun quyidagi talablarga javob berishi shart:

1) Ta'minot sifatida kredit qarzdorligi va unga hisoblangan foizlarni qoplashga yetarli bo'lgan garov ta'minoti kredit qoldig'ining kamida 125% (*aloqador shaxslar uchun 130%, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun 130%*)ini tashkil qilishi;

2) Bank tizimida va boshqa banklarda muddati o'tgan kredit qarzdorligi mavjud bo'lmasligi;

3) kredit mablag'lari maqsadli ishlatilgan bo'lishi;

4) kollegial organ qarori asosida belgilangan shartlarning to'liq bajarilganligi;

5) avvalgi olingan kreditlari bo'yicha 90 (to'qson) kundan oshgan muammoli qarzdorliklari yuzaga kelmaganligi yoki sud jarayonlari olib borilmaganligi;

6) garovdagi mulk ta'minot tarkibidan qisman ozod qilinayotganda, ta'minotdan chiqarilmayotgan boshqa mol-mulklarni likvidligi hamda ishchi holatda ekanligiga e'tibor qaratilishi lozim;

7) yuqorida keltirilgan shartlar bajarilmagan holatlarda yakuniy qaror qabul qilish masalasi Bank Kredit qo'mitasi yoki Bank Boshqaruvi tomonidan ko'rib chiqilib, ruxsat berilishi mumkin.